

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

N.M.Azizova, N.M.Yuldashev, A.B.Saidov


**TURLI QON GURUHLARIDA  
ERITROTSITLARNING FUNKSIONAL  
XUSUSIYATLARINI BAHOLASHNING  
YANGI MEZONLARI**

*uslubiy tavsiyanoma*



Toshkent-2022 y

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI



N.M.Azizova, N.M.Yuldashev, A.B.Saidov

TURLI QON GURUHLARIDA ERITROTSITLARNING FUNKSIONAL  
XUSUSIYATLARINI BAHOLASHNING YANGI MEZONLARI

*uslubiy tavsiyanoma*

10/11/22  
84-p/14668

Toshkent-2022 y

## TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

**Turli qon guruhi larida eritrotsitlarning funksional xususiyatlarini baholashning yangi mezonlari/ N.M.Azizova, N.M.Yuldashev, A.B.Saidov.- Toshkent. -2022- yil.-20- bet.**

Mazkur ishda I (0), II (A), III (B), IV (AB) turli qon guruhi larida eritrotsitlar membranalarida turli moddalarning o'tkazuvchanligi yoki sorbsiya jarayonlaridagi farqlarni baholashdan iborat. Turli moddalarning o'tkazuvchanligi yoki sorbsiya jarayonlaridagi farqlarni aniqlash uchun Humanstar100 (Germaniya) biokimyoiy analizatorida aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko'satdiki, turli qon guruhlari eritrotsitlari turli xil organik moddalarning sorbsiya qobiliyatida ma'lum farqlarga ega. Katta ehtimol bilan, bu farqlar ularning membranalarining tuzilishi va tarkibining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. A (II) guruhi eng yuqori sorbsiya qobiliyatiga ega, B (III) va AB (IV) guruhlari esa eng kichik.

Uslubiy tavsiyanoma gematologlar, fundamental tibbiyot mutahassislar, tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilarga mo'ljallangan.

Qo'llanish sohasi: eksperimental biologiya va tibbiyot.

## TASHKENT PEDIATRIC MEDICAL INSTITUTE

**New criteria for assessing the functional characteristics of erythrocytes in different blood groups/ N.M. Azizova, N.M. Yuldashev, A.B. Saidov. - Toshkent.-2022. -20- p.**

In this work, I (0), II (A), III (B), IV (AB) is to evaluate the differences in permeability or sorption processes of various substances on erythrocyte membranes in different blood groups. In order to determine the differences in the permeability or sorption processes of different substances, it was determined on the Humanstar100 (Germany) biochemical analyzer. The obtained results showed that erythrocytes of different blood groups have certain differences in the sorption capacity of various organic substances. Most likely, these differences are due to the specific characteristics of the structure and composition of their membranes. Group A (II) has the highest sorption capacity, while groups B (III) and AB (IV) have the smallest.

Methodological recommendations are intended for hematologists, fundamental medicine specialists, basic doctoral students, and independent researchers.

Field of application: experimental biology and medicine.


## KIRISH

Eritrositlarning turga xosligi maxsus oqsillar - ularning membranasida joylashgan antigenlar bilan belgilanadi. Evolyutsiya nuqtai nazaridan, "Birinchi qon" 0 (I) guruh taxminan 40 000 yil oldin paydo bo'lgan (Frankini M., Bonfanti S., 2015). Keyinchalik boshqa barcha guruuhlar mutatsiyalar tufayli paydo bo'lgan: A (II) qon guruh taxminan 25 000 yil oldin, B (III) qon guruh taxminan 10 000 yil oldin paydo bo'lgan. Eng yosh guruh AB (IV) qon guruh bo'lib, bundan 2000 yil paydo bo'lgan. Bugungi kunga qadar eritrotsitlar membranasida 300 dan ortiq antigen determinantlar tavsiflangan, ular 36 ta tizimga birlashtirilgan (Deni Ays Dji, Rid ME., 2010).

Amaliy tibbiyotda eng ahamiyatlisi AB0 va Rh tizimidir (Donskov S.I., Morokov V.A., 2014). Adabiyotlarga ko'ra, qon guruh va ayrim kasalliklarni rivojlanish xavfi o'rtasida bog'liqlik mavjud (Selezneva I.A., Gilmiyarova F.N., Gusyakova O.A., Koloteva N.A., Chaulin A.M., Poteksina V.I., 2017). Yaqinda COVID-19ning og'ir kechishi va AB0 qon tizimi o'rtasidagi bog'liqlik haqida ma'lumot paydo bo'ldi: COVID-19ning og'ir kechishi ko'proq darajada A (II) qon guruh bilan bog'liq ekanligi aniqlandi (Silva-Filho J.C., Melo CGF, Oliveira J.L., 2020). Shunday qilib, turli qon guruuhlari xususiyatlarini o'rganish nazariy va amaliy tibbiyot uchun katta qiziqish uyg'otadi [1,2,3,4,5,6,10,12,13].

Hozirgi vaqtida genomika va proteomika kabi ilmlar asosida kelajak tibbiyotining asosi - shaxsiylashtirilgan tibbiyotda shakllanmoqda. Ma'lumki, har bir inson va genomning o'ziga xosligi bir xil omil ta'siriga javoban insoniyat jamiyatidagi fiziologik reaksiyalarning xilma-xilligini belgilaydi. Bu klinik kasallik polimorfizmning asosidir. Diagnostikaning sifati va davolanishning yetarliligi ko'p jihatdan diagnostik tadqiqotlar davomida olingan ma'lumotlarning ma'lum tarkibiga bog'liq (V.V. Menshikov, 2011). Shuni hisobga olgan holda qonning hujayra tarkibidagi eritrositlarning individual tebranishlarini, klinik laboratoriya diagnostikasida ishlataladigan metabolizmning turli xil ko'rsatkichlarini o'rganish juda muhimdir, bu to'g'ri klinik qarorlar qabul qilishga imkon beradi. Eritrosit hujayra elementlari membrana tarkibida antigen tuzilmalari bo'lib, ularning tarkibini glikoproteidlar tashkil etib, ularni guruuhga mansubligini belgilaydi va biologik tur sifatida inson hayotida muhim rol o'ynaydi (S.I. Donskov, V.A. Morokov, 2011). Ular nafaqat qon guruuhlarining markerlari, balki turli xil biologik funksiyalarni bajaradilar: retseptor (ximokinlar, ekzogen ligandlar, parazitlar, mikroblar uchun), transport (akovaporinlar, glyukoza, nukleozidlar, karbamid va boshqalar), strukturaviy (GPA, GPC), reguliyativ (fermentlar), komplementni faollashtirish (CD35, CD55, CD59 va boshqalar) (D.J. Anstee, 1990) (1-rasm). Shu bilan birga, eritrotsitlarning holati,

ularning zararli omillarga chidamliligi va turli xil qon guruhlari eritrotsitlaridagi metabolizm jarayonlari to‘liq o‘rganilmagan [7,8,9,11,14].



**1-rasm.** Eritrotsitlar membranasining soddalashtirilgan kesimi. Qizil qon hujayralari membranasi fosfolipid ikki qavatiga kiritilgan integral 4membrana oqsillaridan iborat. Sitoskeletal oqsillar tarmog‘i transport funktisiyasiga ega bo‘lgan bir nechta transmembran oqsillari orgali membranaga bog‘langan : 3-yo‘l oqsilli, anion tashuvchi; GLUT1, glikoza va L-degidroaskorbin kislota tashuvchisi; RhAG, gaz tashuvchisi, xususan,  $CO_2$ ; turli kation nasoslari va tashuvchilar, jumladan,  $Na^+ - K^+$ -ATFaza,  $Ca^{++}$ -ATFaza,  $Na^+ - K^+ - 2Cl^-$  va  $Na^+ - Cl^-$ ,  $Na^+ - K^+$ ,  $K^+ - Cl^-$  ko-transportchilar va Gardos kanali. Eng so‘nggi ta’riflangan PIEZO1, KCNN4 va ABCB6 oqsillari qizil qon hujayralari membranalarining o’tkazuvchanligini modulyatsiya qilishda ishtirot etadi va ularning taxminiy o’zaro ta’siri ham ko’rsatilgan. Turli komplekslar ichida oqsillarning bir-biriga nisbatan joylashuvi asosan noma’lum. Asosiy oqsillarning shakllari asosan xayoliydir. GPA, glikoforin A; Rh, rezus polipeptidlari; B-4,1, oqsil bandi 4.1; B-4,2, oqsil tasmasi 4,2; GPC, glikoforin C; RhAG, Rh bilan bog‘liq glikoprotein; RBC: qizil qon hujayralari. \*Hozirgacha patogen mutatsiyalar ta’siriga uchragan oqsillar.

## **ILMIY YANGILIGI**

Taklif etilayotgan uslubiy tavsiyanomani ilmiy jihatdan yangiligi Toshkent shahrida doimiy yashovchi o‘zbek millatiga mansub bo‘lgan erkak donorlardan olingen turli qon guruhlarga mansub bo‘lgan eritrotsitlar membranalarida alohida antigenlarning mavjudligi bilan bog‘liqligini hisobga olsak, turli xil qon guruhlari eritrotsitlar membranalarida turli moddalarning o‘tkazuvchanligi yoki sorbsiya jarayonlarida ham mumkin bo‘lgan farqlarni taxmin qilish mumkin. Ushbu taxminni sinab ko‘rish uchun biz turli xil qon guruhlari eritrotsitlari tomonidan bir qator organik moddalarning so‘rilish/sorbsiya tezligi bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazdik. Va qon guruhlari bir qancha farqlarni aniqlandi.

### **TADQIQOT DIZAYNI**

Eritrotsitlar membranasi klassik hujayra membranasi sifatida hujayraning o‘ziga ham, hujayradan tashqi muhitdagi moddalar oqimini ham tartibga solib turadi. Bu jarayonda ikki qavatlari eritrotsitlar membranasining ham miqdoriy, ham sifat tarkibi muhim ahamiyatga ega. Qon guruhlaridagi farqlar eritrotsitlar membranalarida alohida antigenlarning mavjudligi bilan bog‘liqligini hisobga olsak, turli xil qon guruhlari eritrotsitlar membranalarida turli moddalarning o‘tkazuvchanligi yoki sorbsiya jarayonlarida ham mumkin bo‘lgan farqlarni taxmin qilish mumkin.

Ushbu taxminni sinab ko‘rish uchun o‘zbek millatiga mansub erkak donorlardan olindi, tadqiqot haqida ogohlantirilib roziqligi olindi. Tadqiqot uchun material vakuumli qon yig‘ish probirkasiga olingen venoz qon edi. Qon guruhini aniqlash monoklonal antikorlar eritrotest-siklonlar anti-A, anti-B, anti-D Super OOO "Gematalog" va standart eritrotsitlar to‘plami 0 (I), A (II), B (III) yordamida amalga oshirildi.

Olingen turli xil qon guruhlari eritrotsitlari tomonidan bir qator organik moddalarning so‘rilish/sorbsiya tezligi bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazdik. Buning uchun qon plazmasi va shakli elementlar ajratib olindi. Shakli elementlar ichidan turli qon guruhlariga mansub bo‘lgan eritrotsitlar ajratib olish uchun fiziologik eritmada 4 marta yuvilgan. Ajratib olingen plazmalarda umumiy oqsil, glyukoza, xolesterin, triglitseridlari, mochevina va kreatinin miqdori HUMAN hs100 biokimyoiy analizatorida biokimyoiy ko‘rsatkichlari aniqlandi. Keyin plazmaga mos keladigan qon guruhlarining yuvilgan eritrotsitlari qo‘sildi va 10 daqqa davomida inkubatsiya qilindi. So‘ng inkubatsiya qilingan eritma tarkibidan plazma yana ajratilib yuqoridagi organik moddalarning konsentratsiyasi qayta-qayta o‘lchandi. Qiyoziy guruh sifatida turli qon

guruhlaridan olingan raqamli ma'lumotlarni birlashtirish orqali yaratilgan umumiy populyatsiyadan foydalanildi.


## STATISTIK TAHLIL

Olingan natijalar qayta ishlash Excell dasturida variatsion qator statistik usulini qo'llagan holda statistik ishlab chiqildi. Nazorat va tajriba guruhlari ko'rsatkichlari orasidagi ishonchilik Stuydentning t-kriteriyasi yordamida hisoblab chiqildi.

## OLINGAN NATIJALAR

Biz tadqiqot uchun, yuqorida keltirilganidek, 56 o'zbek millatiga oid erkak donorlarni oldik. O'zbek millatiga oid erkaklar ajratib olinganligiga sabab millatga hos hususiyatlarni aniqlash emas edi, chunki buning uchun tadqiqotlarni katta guruhdha o'tkazish zarurdir. Tadqiqot uchun faqat bir millat vakillarini ajratib olish millatga hos hususiyatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hatoliklardan holi bo'lsh imkonini beradi.

Tadqiqotlar natijalari o'r ganilayotgan guruhda qon guruhlari AB0 tizimi bo'yicha quyidagicha tarqalganligini ko'rsatdi: 0 (I) qon guruhi – 31,1 %, A (II) qon guruhi – 32,7 %, B (III) qon guruhi – 26,4 % va AB (IV) qon guruhi – 9,9 % (2-rasm).



2-rasm. Tadqiqotda o'r ganilgan erkak donorlar qonining AB0 tizimi bo'yicha tarqalishi

D. Qayumovaning tаддиқотларига Toshkent shahrida 0 (I) qон гурухи устунлик қилиши ко'рсатилган [15]. D. Qayumovaning natijalari 23 000 dan ortiqroq donorlar qoni таҳлили natijasida олинган. Bizning таддиқотлarda A (II) qон гурухи устунлик qildi. Bu farq aynan bizda таддиқотга олинган donorlar sonining ozchiligi hisobiga bo'lishi mumkin.

Turli qон гурухлари qон plazmasidagi biokimiyoviy ko'rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan. Olingen natijalar turli qон гурухлари qон plazmalarida umumiyl oqsil miqdorini bir-biridan deyarli farq qilmasligini ko'rsatdi (1-jadval). Bunda oqsil miqdori 57 g/l dan 70 g/l gacha o'zgarib turdi.

#### 1-jadval.

##### **AB0 тизимига ко'ра turli qon guruhlari plazmasidagi ba'zi biokimiyoviy ko'rsatkichlar tahlili (1 litr plazmaga)**

Ko'rsat-kichlar, o'cham-lilik	Statistik para-metrlar	Jami	Qon guruhlari			
			0 (I)	A (II)	B (III)	AB (IV)
<b>Umumiy oqsil, g/l</b>	M ± m	63,38±1,17	62,25±2,78	60,50±1,26	65,75±2,17	65,00±2,68
	Min÷Max	57 ÷ 70	57 ÷ 70	57 ÷ 70	62 ÷ 70	59 ÷ 70
<b>Albumin, g/l</b>	M ± m	44±1,41	40,25±1,11	42,25±0,63	47,5±3,2	46±4,12
	Min÷Max	37 ÷ 53	37 ÷ 42	41 ÷ 44	41 ÷ 53	37 ÷ 53
<b>Glyukoza, mmol/l</b>	M ± m	5,06±0,44	5,98±0,57	6,20±0,40	4,10±1,04	3,95±0,99 <sup>a</sup>
	Min÷Max	2,3 ÷ 7,6	5,1 ÷ 7,6	5,0 ÷ 6,7	2,3 ÷ 6,4	2,3 ÷ 6,4
<b>Xolesterin, mmol/l</b>	M ± m	3,65±0,15	4,06±0,39	3,11±0,18 <sup>*a</sup>	3,88±0,08	3,53±0,29
	Min÷Max	2,62 ÷ 5,03	3,38 ÷ 5,03	2,62 ÷ 3,50	3,69 ÷ 4,10	2,67 ÷ 3,87
<b>Trigliceridl ar, mmol/l</b>	M ± m	1,75±0,16	1,87±0,41	1,87±0,36	1,91±0,07	1,27±0,06 <sup>a,b</sup>
	Min÷Max	0,95 ÷ 2,71	0,95 ÷ 2,59	1,17 ÷ 2,71	2,79 ÷ 3,15	1,16 ÷ 1,35
<b>Mochevina, mmol/l</b>	M ± m	5,46±0,35	5,13±0,58	6,38±0,38	5,23±0,97	5,13±0,92
	Min÷Max	3,2 ÷ 7,6	3,7 ÷ 6,4	5,9 ÷ 7,5	3,9 ÷ 7,6	3,2 ÷ 7,6
<b>Kreatinin, mkmol/l</b>	M ± m	80,43±2,33	79,25±3,59	79,00±2,61	81,50±13,50	78,33±8,51
	Min÷Max	67 ÷ 95	72 ÷ 88	75 ÷ 86	68 ÷ 95	67 ÷ 95

Izoh: \* -  $P < 0,05$  jamiga nisbatan; a -  $P < 0,05$  0 (I) guruhga nisbatan; b -  $P < 0,05$  A (II) guruhga nisbatan;  $\delta$  -  $P < 0,05$  B (III) guruhga nisbatan;

Albumin miqdorida 0 (I) qон гурухida pasayishga bo'lган, B (III) va AB (IV) esa ortishga bo'lган tendentsiya kuzatildi.

0 (I) va A (II) qон гурухларida glyukoza miqdori umumiyl guruhga nisbatan 18,2 va 22,5 % ortiq bo'lishiqa qaramay, bu farq statistik jihatdan ahamiyatsiz bo'lib chiqdi. B (III) va AB (IV) qон гурухida esa umumiyl guruhga nisbatan, aksincha, glyukoza miqdori 19,0 va 21,9 %ga kamaydi, ammo bu pasayish ham statistik jihatdan ishonchli bo'lmadidi. Shu bilan birga, AB (IV) гуруhidagi

glyukoza miqdori A (II) guruhiqa nisbatan statistik jihatdan ishonchli ravishda 36,3 % ga past chiqdi.

A (II) qon guruhi plazmasidagi xolesterin miqdori umumiy hamda 0 (I) qon guruhlariga nisbatan statistik jihatdan ishonchli holda mos ravishda 14,8 va 23,4 % ga past chiqdi.

Turli qon guruhlari plazmasida triglitseridlар miqdori o'rganilganda AB (IV) qon guruhida ularning miqdori umumiy, 0 (I), A (II) va B (III) qon guruhlarinikiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli holda mos ravishda 27,4, 32,1, 32,1 va 33,5 % ga past ekanligi aniqlandi.

Turli qon guruhlari plazmasida mochevina miqdori darajasida taqqoslangan guruhlari o'tasida statistik jihatdan ishonchli o'zgarishlar aniqlanmadи. Shu bilan birga, mochevina ko'rsatkichining mutloq miqdori A (II) qon guruhida eng yuqori bo'ldi.

Va niyoyat, turli qon guruhlari qon plazmasidagi kreatinin miqdorini o'rganish solishtirayotgan qon guruhlari o'tasida bu modda miqdori bo'yicha sezilarli farqlarni ko'rsatmadи.

Biz yuqorida o'rganilgan biokimyoiy ko'rsatkichlar miqdorini 1 dona eritrotsitga nisbatan ham hisoblab chiqdik. Buning sababi shundaki, odatda 1 litr qonda aniq bir miqdordagi eritrotsitlar bo'lmaydi, yani ularning sonida bir oz bo'lsada, farq kuzatiladi. Turli qon guruhlari qon plazmasidagi biokimyoiy ko'rsatkichlarning 1 eritrotsitga hisoblangan miqdorlari 2-jadvalda keltirilgan.

Olingan natijalar turli qon guruhlari qon plazmalarida umumiy oqsil miqdorini 1 eritrotsitga nisbatan hisoblanganda bir-biridan deyarli farq qilmasligini ko'rsatdi (2-jadval). Bunda oqsil miqdori 13,48 g/RBC dan 17,07 g/RBC gacha o'zgarib turdi.

Albumin miqdori qon plazmasiga hisoblanganda aniqlangan pasayish statistik jihatdan ishonchli bo'limgan edi. Albumin miqdori 1 dona eritrotsitga hisoblanganda 0 (I) qon guruhida uni umumiy guruhga nisbatan statistik jihatdan ishonchli ravishda 10,8 %ga pasayganligi aniqlandi. B (III) qon guruhi plazmasida 1 dona eritrotsitga hisoblanganda albumin miqdori 0 (I) qon guruhni ko'rsatkichiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli ravishda 20,7 %ga yuqori bo'ldi.

Turli qon guruhlari plazmasida glyukoza miqdori 1 dona eritrotsitga hisoblanganda A (II) qon guruhlarida glyukoza miqdori umumiy guruhga nisbatan statistik jihatdan ishonchli ravishda 24,8 % ortiq bo'ldi. Glyukoza miqdori 1 dona eritrotsitga hisoblanganda AB (IV) qon guruhida uning miqdori A (II) qon guruhiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli ravishda 37,8 % ga past chiqdi.

2-jadval.

**AB0 tizimiga ko'ra turli qon guruhlari plazmasidagi ba'zi biokimyoviy ko'rsatkichlar tahlili (1 dona eritrotsitga)**

Ko'rsat-kichlar, o'lchamlilik	Statistik para-metrlar	Jami	Qon guruhlari			
			0 (I)	A (II)	B (III)	AB (IV)
<b>Umumiy oqsil, g/RBC</b>	M ± m	15,11±0,32	14,50±0,74	14,70±0,50	15,65±0,52	15,60±0,81
	Min÷Max	13,48÷17,07	13,48÷16,67	13,86÷16,15	14,76÷16,67	13,72÷17,07
<b>Albumin, g/RBC</b>	M ± m	10,5±0,37	9,37±0,30*	10,27±0,37	11,31±0,76 <sup>a</sup>	11,06±1,11
	Min÷Max	8,60÷12,93	8,81÷10,00	9,55÷11,28	9,76÷12,62	8,60÷12,93
<b>Glyukoza, mmol/RBC</b>	M ± m	1,21±0,11	1,40±0,15	1,51±0,11*	0,98±0,25	0,94±0,23 <sup>b</sup>
	Min÷Max	0,55÷1,81	1,11÷1,81	1,10÷1,67	0,55÷1,52	0,56÷1,52
<b>Xolesterin, mmol/RBC</b>	M ± m	0,87±0,04	0,95±0,10	0,75±0,04*, <sup>a</sup>	0,92±0,02 <sup>b</sup>	0,85±0,08
	Min÷Max	0,62÷1,20	0,73÷1,20	0,66÷0,82	0,88÷0,98	0,62÷0,94
<b>Triglicerid-lar, mmol/RBC</b>	M ± m	0,42±0,04	0,44±0,10	0,45±0,08	0,45±0,02	0,31±0,01*, <sup>a,b</sup>
	Min÷Max	0,25÷0,62	0,25÷0,62	0,28÷0,62	0,42÷0,47	0,28÷0,32
<b>Mochevina, mmol/RBC</b>	M ± m	1,31±0,09	1,20±0,15	1,55±0,09*, <sup>a</sup>	1,24±0,20	1,23±0,23
	Min÷Max	0,74÷1,85	1,02÷1,52	1,34÷1,79	1,00÷1,82	0,74÷1,85
<b>Kreatinin, mkmol/RBC</b>	M ± m	19,08±0,52	18,10±0,55	19,17±0,57	19,40±3,21	18,71±2,29
	Min÷Max	15,58÷23,17	17,14÷19,52	17,86÷20,51	17,38÷22,62	15,8÷23,17

Izoh: RBC (red blood cells) – eritrotsit (qizil qon hujayrasi), \* - P < 0,05 jamiga nisbatan; a - P < 0,05 0 (I) guruhga nisbatan; b - P < 0,05 A (II) guruhga nisbatan; <sup>a</sup> - P < 0,05 B (III) guruhga nisbatan;

1 dona eritrotsitga hisoblanganda A (II) qon guruhida xolesterin miqdori umumiy va 0 (I) qon guruhlariga bilan solishtirganda statistik jihatdan ishonchli ravishda mos holda 13,8 va 21,1 % past bo'lib chiqdi. 1 dona eritrotsit uchun hisoblanganda, B (III) guruh eritrotsitlaridagi xolesterin miqdori A (II) guruhiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli ravishda 22,7 % ga yuqori bo'ldi.

Turli qon guruhlari plazmasida triglitseridlar miqdori 1 dona eritrotsitga hisoblanganda AB (IV) qon guruhidagi triglitseridlar miqdori umumiy, 0 (I), A (II) va B (III) guruhlarda statistik jihatdan ishonchli ravishda mos holda 26,2, 29,6, 31,1 va 31,1 % ni tashkil etdi.

1 dona eritrotsitga nisbatan hisoblanganda A (II) qon guruhidagi mochevina miqdori umumiy va 0 (I) guruhlardagi miqdorlardan statistik jihatdan ishonchli holda mos ravishda 18,3 va 29,2 % ga ortiq bo'ldi.

Va nihoyat, turli qon guruhları qon plazmasidagi kreatinin miqdorini 1 dona eritrotsitga nisbatan o'rganish solishtirilayotgan qon guruhları o'tasida bu modda miqdori bo'yicha sezilarli farqlarni ko'rsatmadı.

Eritrosit membranalari sorbsiya qobiliyati bo'yicha olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, umumiy guruh eritrotsitlarini qon plazmasi bilan inkubatsiya qilish umumiy oqsil miqdorini 23,3% ga ( $P < 0,05$ ) pasayishiga olib keldi (3-jadval). Shu bilan birga, 0 (I), A (II), B (III) va AB (IV) guruhlarga mansub eritrotsitlarni inkubatsiya qilish jarayonida plazma oqsillari tarkibining guruhlarda mos ravishda 20,5, 29,8, 18,6 va 24,6% ga statistik jihatdan sezilarli darajada o'zgarishlar kuzatildi.



**3-rasm. Plazma tarkibidagi oqsil sorbsiyasining tezligi**

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, A (II) guruhida  $10^{12}$  eritrotsitga daqiqasiga 451,6 mg ga teng oqsil sorbsiyasining maksimal tezligi kuzatildi. 291,7 mg ga teng bo'lgan eng past ko'rsatkich B (III) guruhda kuzatildi (3-rasm).

Umumiy guruh eritrotsitlarini qon plazmasi bilan inkubatsiya qilish plazma glyukozasining 26,3% ga pasayishiga olib keldi ( $P < 0,05$ ). Shu bilan birga, 0 (I) va A (II) guruhlarda mos ravishda 28,1 va 40,3% dan eritrotsitlar inkubatsiyasi paytida plazma glyukozasining statistik jihatdan sezilarli darajada pasayishi kuzatildi. Shu bilan birga, B (III) va AB (IV) guruhidagi eritrotsitlar inkubatsiyasi paytida plazma glyukozasining mos ravishda 28,1 va 29,6% ga kamayishi o'rtacha (m) katta qiymati tufayli statistik ahamiyatga ega emas. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki,  $10^{12}$  eritrotsit uchun daqiqasiga 61,9 mkmolga teng bo'lgan glyukozaning maksimal qabul qilish tezligi A (II) guruhida ham kuzatildi.


Minutiga 27,4 mkmolga teng bo'lgan eng kichik qiymat B (III) guruhda kuzatilgan.

### 3 - jadval

#### **AB0 tizimiga ko'ra turli bog'liqlikdagi qon eritrotsitlaridagi ba'zi biokimyoiy ko'rsatkichlarning tarkibi**


Ko'rsatkichlar , o'lchamlik	Statistik ko'rsatkichlar	Jami	0 (I)	A (II)	B (III)	AB (IV)
Umumiy oqsil, g/l	M ± m, birlamchi	63,38±1,17	62,25±2,78	60,50±1,26	65,75±2,17	65,00±2,68
	M ± m, inkubatsiya-dan so'ng	48,63±2,64*	49,50±4,57*	42,50±9,26*	53,50±1,66*	49,00±3,08*
	Kamayishi %	23,3	20,5	29,8	18,6	24,6
	Sorbsiya, mg/min	380,1	298,4	451,6	291,7	383,6
Glyukoza, mmol/l	M ± m, birlamchi	5,06±0,44	5,98±0,57	6,20±0,40	4,10±1,04	3,95±0,99
	M ± m, inkubatsiya-dan so'ng	3,72±0,40*	4,30±0,60*	3,70±0,62*	2,95±1,01	2,78±0,97
	Kamayishi %	26,5	28,1	40,3	28,1	29,6
	Sorbsiya, mkmol/min	39,2	39,5	61,9	27,4	28,1
Xolesterin, mmol/l	M ± m, birlamchi	3,65±0,15	4,06±0,39	3,11±0,18	3,88±0,08	3,53±0,29
	M ± m, inkubatsiya-dan so'ng	2,71±0,20*	3,22±0,08*	1,87±0,61*	3,00±0,23*	2,74±0,16*
	Kamayishi %	25,8	20,7	39,9	22,7	22,4
	Sorbsiya, mkmol/min	22,7	20,1	30,3	21,1	19,1
Triglitserid lar, mmol/l	M ± m, birlamchi	1,75±0,16	1,87±0,41	1,87±0,36	1,91±0,07	1,27±0,06
	M ± m, inkubatsiya-dan so'ng	0,97±0,16*	1,10±0,46	1,04±0,28	1,02±0,29*	0,66±0,14*
	Kamayishi %	44,6	41,2	44,4	46,6	48,0
	Sorbsiya, mkmol/min	19,41	20,5	20,4	21,2	14,8
Mochevin, mmol/l	M ± m, birlamchi	5,46±0,35	5,13±0,58	6,38±0,38	5,23±0,97	5,13±0,92
	M ± m, inkubatsiya-dan so'ng	4,25±0,20*	4,23±0,25	3,93±0,26*	4,53±0,53	4,33±0,59
	Kamayishi %	22,2	17,5	38,4	13,4	15,6
	Sorbsiya, mkmol/min	32,5	28,26	59,9	23,8	19,4
Kreatinin, m/lmk	M ± m, birlamchi	79,31±2,59	79,25±3,59	79,00±2,61	84,00±11,00	78,33±8,51
	M ± m, inkubatsiya-dan so'ng	69,69±3,39*	66,75±5,99*	67,00±2,48*	79,00±11,00	69,33±10,02
	Kamayishi %	12,1	15,8	15,2	6,0	11,5
	Sorbsiya, nmol/min	247,2	291,9	293,0	119,1	212,1

Umumiy guruh eritrotsitlarini qon plazmasi bilan inkubatsiya qilish plazma glyukozasining 26,3% ga pasayishiga olib keldi ( $P < 0,05$ ). Shu bilan birga, 0 (I) va A (II) guruhlarda mos ravishda 28,1 va 40,3% dan eritrotsitlar inkubatsiyasi paytida plazma glyukozasining statistik jihatdan sezilarli darajada pasayishi kuzatildi. Shu bilan birga, B (III) va AB (IV) guruhidagi eritrotsitlar inkubatsiyasi paytida plazma glyukozasining mos ravishda 28,1 va 29,6% ga kamayishi o‘rtacha (m) katta qiymati tufayli statistik ahamiyatga ega emas. Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatdiki,  $10^{12}$  eritrotsit uchun daqiqasiga 61,9 mkmolga teng bo‘lgan glyukozaning maksimal qabul qilish tezligi A (II) guruhida ham kuzatildi (4-rasm). Minutiga 27,4 mkmolga teng bo‘lgan eng kichik qiymat B (III) guruhda kuzatilgan.




**4-rasm. Plazma tarkibidagi glyukoza sorbsiyasining tezligi**

Umumiy guruhning eritrotsitlarini qon plazmasi bilan inkubatsiya qilish xolesterinning 25,8% ga pasayishiga olib keldi ( $P < 0,05$ ). Shu bilan birga, 0 (I), A (II), B (III) va AB (IV) guruhlarda mos ravishda 20,7, 39,9, 22,7 va 22,4% ga eritrotsitlar inkubatsiyasi paytida plazma xolesterinning statistik jihatdan sezilarli darajada pasayishi kuzatildi. A (II) guruhida  $10^{12}$  eritrotsit uchun daqiqada 30,3 mkmolga teng xolesterinning maksimal so‘rilish tezligi kuzatildi (5-rasm). 19,1 mkmolga teng bo‘lgan eng past qiymat AB (IV) guruhda kuzatildi.



**5 -rasm. Plazma tarkibidagi xolesterin sorbsiyasining tezligi**

Umumiy guruh eritrotsitlarini qon plazmasi bilan inkubatsiya qilish jarayonida triglitseridlar tarkibining 44,6% ga kamayishi ( $P <0,05$ ) kuzatildi. Shu bilan birga, B (III) va AB (IV) guruhlari mos ravishda 46,6 va 48,0% ga eritrotsitlarini inkubatsiya qilish paytida plazmadagi triglitseridlar miqdorining statistik jihatdan sezilarli darajada pasayishi kuzatildi. Shu bilan birga, O (I) va A (II) guruhlari mos ravishda 41,2 va 44,4%ga eritrotsitlar inkubatsiyasi paytida plazma triglitseridlarining kamayishi, shuningdek, o'rtacha (m) katta qiymati statistik ahamiyatsiz bo'lib chiqdi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, B (III) guruhida  $10^{12}$  eritrotsit uchun daqiqada 21,2 mkmolga teng triglitseridlarning maksimal so'rilib chiqadigan tezligi (6-rasm). Daqiqada 14,8 mkmolga teng bo'lgan eng past qiymat AB ( IV ) guruhda kuzatildi.




**6-rasm. Plazma tarkibidagi triglitseridlar sorbsiyasining tezligi**

Umumiy guruh eritrotsitlarini qon plazmasi bilan inkubatsiya qilish plazmadagi machevina miqdorini 22,2 % ga pasayishiga olib keldi ( $P < 0,05$ ). Shu bilan birga, eritrotsitlar inkubatsiyasi paytida plazmadagi mochevina miqdorining statistik jihatdan sezilarli darajada pasayishi faqat A (II) guruhni (38,4 foizga) da kuzatildi. 0 (I), B (III) va AB (IV) guruhlarida eritrotsitlar inkubatsiyasi paytida plazmada mochevina miqdori mos ravishda 17,5, 13,4 va 15,6 % ga kamayishi statistik ahamiyatga ega emas edi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, mochevinaning maksimal so'rilish tezligi  $10^{12}$  eritrotsit uchun A (II) guruhda daqiqasiga 59,9 mkmolga teng ekanligi kuzatildi (7-rasm). Daqiqasiga 19,4 mkmolga teng bo'lgan eng past qiymat AB (IV) guruhda kuzatildi.



7-rasm. Plazma tarkibidagi machevina sorbsiyasining tezligi

Umumiy guruh eritrotsitlarini qon plazmasi bilan inkubatsiya qilish plazma kreatininining 12,1% ga pasayishiga olib keldi ( $P < 0,05$ ). Shu bilan birga, eritrotsitlar inkubatsiyasi davrida plazmadagi kreatinin miqdorining statistik jihatdan sezilarli pasayishi 0 (I) va A (II) guruhlarida mos ravishda 15,8 va 15,2% ga teng ekanligi kuzatildi. B (III) va AB (IV) guruhlarida eritrotsitlar inkubatsiyasi vaqtida plazma kreatininining mos ravishda 6,0 va 11,5% ga kamayishi statistik ahamiyatga ega emas edi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, A (II) guruhida  $10^{12}$  eritrotsit uchun daqiqada 293,0 nmolga teng kreatininning sorbsiyasini maksimal tezligi kuzatildi (8-rasm). Minutiga 119,1 nmolga teng bo'lgan eng kichik qiymat B (III) guruhda kuzatildi.



**8-rasm. Plazma tarkibidagi kreatinin sorbsiyasining tezligi**

### HULOSA

Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqotlar AB0 tizimiga ko'ra turli guruhga mansub bo'lgan qon plazmasida albumin, glyukoza, xolesterin, triglitserid va mochevina kabi qator biokimyoviy ko'rsatkichlar miqdorlari orasida statistik jihatdan ishonchli bo'lgan ma'lum farqlar mavjudligini va turli qon guruhlari eritrotsitlari turli xil organik moddalarning sorbsiya qobiliyatida ham ma'lum farqlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Katta ehtimol bilan, bu farqlar ularning membranalarining tuzilishi va tarkibining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. A (II) guruh eng yuqori sorbsiya qobiliyatiga ega, B (III) va AB (IV) guruhlari esa eng kichik.

Ushbu natijalar keljakda biokimyoviy ko'rsatkichlarning normal chegaralarini belgilashda qon guruhlari hisobga olgan holda yondashuvga hamda biokimyoviy ko'rsatkichlarning normal miqdorlarini ham individuallashtirish imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Франкини М., Бонфанти С. Эволюционные аспекты группы крови AB0 у человека. *Clinica Chimical Acta.* 2015; (444): 66-71. DOI: 10.1016/j.cca.2015.02.016
2. Дэни Айс Джি, Рид МЭ. Группы крови: последние 50 лет. Переливание крови. 2010; 50 (2): 281-9. DOI: 10.1111/j.1537-2995.2009.02456.
3. Донсков С.И., Мороков В.А. Группы крови человека. Руководство по иммunoсерологии. Бином, 2014. – 1016 с.
4. Селезнева И.А., Гильмиярова Ф.Н., Гусякова О.А., Колотьева Н.А., Чаялин А.М., Потексина В.И. Группы крови: клеточный состав и биологическая изменчивость метаболизма при здоровье и болезни. М.: Известия; 2007: 9-57., Система группы крови AB0 и болезнь. Европейский журнал естественной истории. 2017; (1): 14-21.
5. Silva-Filho JC, Melo CGF, Oliveira JL. The influence of ABO blood groups on COVID-19 susceptibility and severity: A molecular hypothesis based on carbohydrate-carbohydrate interactions. *Med Hypotheses.* 2020; 144: 110155. doi:10.1016/j.mehy.2020.110155
6. Daniels G, Reid ME. Qon guruhlari: so'nggi 50 yil. *Qon quyish .* 2010; 50 (2): 281-9 DOI: 10.1111 / j.1537-2995.2009.02456.
7. Xu X, Xu F, Ying Y, Hong X, Liu Y, Chen S, He J, Zhu F, Hu W. AB0 qon guruhining normal va variantli trombotsitlarida AB0antigen darajasi. *Trombotsitlar .* 2018; (26): 1-7.DOI: 10.1080 / 09537104.2018.1543863
8. Eastlund T. Gisto-qon guruhi AB0 tizimi va to'qimalarni transplantatsiyasi. *Qon quyish.* 1998; (38): 975-88. DOI: 10.1046 /j.1537-2995.1998.381098440863
9. Franchini M, Liumbruno G.M. AB0 qon guruhi: eski dogma, yangi istiqbollar. *Klinik kimyo va laboratoriyalar tibbiyoti .* 2013; 51 (8): 1545-53. DOI 10.1515 / cclm-2013-0168
10. Franchini M, Bonfanti C. Odamlarda AB0 qon guruhining evolyutsion jihatlari. *ClinicaChimicaActa .* 2015 yil; (444): 66-71.DOI: 10.1016 / j.cca.2015.02.016
11. Selezneva I.A., Gilmiyarova F.N., Gusyakova O.A., Kolotyeva N.A., Chaulin A.M., Potexina VI. AB0-qon guruhi tizimi va kasallanish. *Evropa tabiiy tarixi jurnali.* 2017; (1): 1421. [Selezneva IA, Gylmiyarova FN, Gusyakova OA, Kolotyeva N.A., Chaulin A.M., Potexina VI. AB0-qon guruhlari tizimi va kasallanish. *Evropa tabiiy tarixi jurnali.* 2017; (1): 14-21. (Rus tilida)

12. Brecher ME, Xey SN. AB0 qon turi va uzoq umr ko'rish. *Ameri mumkin Klinik patologiya jurnalı*. 2011; 135 (1): 96-8. DOI: 10.1309 / ajcpmhj 6l3 rphzx
13. Qon guruhlari: sog'liq va kasallikdagi hujayra tarkibi va metabolizmning biologik o'zgaruvchanligi. M.: Izvestiya; 2007: 9-57. Qon Guruhlari: uyali compositi biologik o'zgaruvchanlik haqida va normal va patologik metabolizm. Moskva: Izvestiya; 2007: 9-57. (Rus tilida)]
14. Yamamoto F, Cid E, Yamamoto M, Blancher A. AB0tekshirish zamonaviy genomika davrida. *Qon quyish bo'yicha tibbiyot mulohazalari*. 2012; 26 (2): 103-18. DOI: 10.1016 / j. tmrv.2011.08.002
15. Kayumova G.H. Axolini eritrosit antigenlari bilan alloimunizatsiyasini tashhislashni takomillashtirish va eritrositlarning antigen tarkibiga ko'ra aholining genografik tarmog'ini tuzish. Avtoreferat....t.f.n. Toshkent-2020.46 bet.

## QISQARTMA SO'ZLAR

**AB0** – AB0 qon guruhlari

**Rh** – rezus tizimi

**GPA** - glikoforin A;

**GPC** - glikoforin C;

**CD35** – glikoprotein, 1-tip komplement retseptori

**CD55** – glikoprotein, komplementni parchalanishini tezlashtiruvchi faktor

**CD59** – glikoprotein, reaktiv lizisni ingibirlovchi membrana ingibitorı

**GLUT1** – 1-tipdagi glyukozotransportyor

**PIEZ01** – mexanik ta'sirga sezuvchan bo'lgan eritrotsit membranasidagi ion kanali

**KCNN4** – Kaltsiy bilan faollashuvchi kaliyni oraliq tarzda yoki kam o'tkazuvchi kanal

**ABC<sub>B6</sub>** – ATPni bog'lovchi mitochondrial B oqsillar superoilsasining 6-vakili

**RBC** – qizil qon hujayralari

**g** – gramm

**l** – litr

**mg** – milligramm

**mkmol** – mikromol

**nmol** – nanomol

## IZOHLI LUG'AT

### Eritrositlarning sorbsiya tezligi – Eritrositlarning yutilish tezligi

**Genomika** – umumiy genlar yig'indisi yani hozirgi kunda o'simik dunyosi va tabiyatdagi barcha tirik organizmlarning genlari ustida ishlash va yangi va samarali maxsulotlar yetishtirish.

**Proteomika** – oqsillarning tuzilishi va funktsiyasini o'rganadigan, shuningdek, tirik hujayra ichidagi oqsil-oqsil o'zaro ta'sirining murakkab tarmog'ini tahlil qiluvchi fan.

**Gemoliz** (gemo va yunoncha lysis — yemirilish, parchalanish), gematoliz, eritrotsitoliz — qizil qon tanachalari (eritrotsitlar)ning parchalanib, gemoglobining qon plazmasiga o'tishi. Normal holatda gemoliz eritrotsitlarning hayotiy siklini yakunlaydi; odam va hayvonlar organizmida u uzluksiz ravishda sodir bo'lib turadi (fiziologik gemoliz). Ba'zi kasalliklarda, organizm zaharlanganda, badan kuyganda, qon guruhi yoki rezus-faktori to'g'ri kelmagan qon quylganda yoki dorilar qabul qilinganda patologik gemoliz hodisisi ro'y beradi. Gemoliz tufayli qon qip-qizil, loklangandek bo'lib qoladi; kamqonlikka, og'ir turida esa o'limga sabab bo'ladi. Gemoliz turlari: biologik, mexanik, kimyoviy, termik turlarga bo'linadi.

**Agglyutinatiya** (lotincha: agglutinatio - yopishish) – tibbiyotda zarrachalar, bakteriyalar, qizil va oq qon tanachalari (eritrotsitlar va leykotsitlar) va boshqa hujayralarning agglyutiniinlar (qon zardobi) ta'sirida bir-biriga yopishib, g'uj-g'uj bo'lib cho'kib tushishi. Ular organizmning har xil kasalliklarida va immunitet hosil qilganda to'planadi. Masalan, tajriba hayvonlarini ich terlamaga qarshi emlab, unda olingan zardob (immun zardob) ich terlama mikroblari bor muhitga ta'sir ettirilsa, mikroblar harakat qilishdan to'xtaydi va g'uj-g'uj bo'lib cho'kib tushadi. Qon gruppasini aniqlash, ba'zi yuqumli kasalliklarni tekshirish uchun qilinadigan serologik reaksiyalarga asoslangan.

**Glikoliz** (yunoncha glykys — shirin va lysis — parchalanish) — uglevodlar (asosan glyukoza)ni sut kislotasigacha anaerob parchalanish jarayoni; bijg'ishning bir turi. Glikolizda ajralib chiqqan energiya adenozintrifosfat (ATF) ning fosfat bog'lari energiyasiga aylanadi. Bu jarayonda 6 uglerodli qand — D-glyukoza hujayraning asosiy "yonilg'i"si hisoblanadi.

## MUNDARIJA

1.	Kirish.....	3
2.	Ilmiy yangiligi.....	5
3.	Tadqiqot dizayni.....	5
4.	Statistik tahlil.....	6
5.	Olingan natijalar.....	6
6.	Hulosa.....	15
7.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	16
8.	Qisqartma so'zlar.....	18
9.	Izohli lug'at.....	19

Босишига рухсат этилди: 24.11.2022 йил

Бичими 60x84 1/16 . «Times New Roman»

гарнитурада рақамли босма усулда чоп этилди.

Шартли босма табоги 1,25. Адади 100. Буюртма № 240

“Fan va ta’lim poligraf” MChJ босмахонасида чоп этилди.  
Тошкент шахри, Дўрмон йўли кўчаси, 24-уй.